

JAHONNING ILK CHOLG'USI "NOG'ORA" va "DOYRA" TARIXI

Saidiy Said Bolta-Zoda,

San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, kompozitor

Markaziy Osiyo va yaqin Sharq cholg'ushunoslik

"Morfologiya" si asoschisi

CHOLG'U MORFOLOGIYASI- "Tosh davrining nomusiqiy va musiqiy cholg'ulari paydoishini aniqlash va tahlil qilishdir". S.Saidiy

MEMBRONOFONLAR: Jahon xalqlari musiqa madaniyatida, jumladan, Markaziy Osiyo musiqiy hayotida cholg'ularning o'z o'rnini bor. Urma cholg'ular uzoq tarixga ega bo'lib, ular asrlar davomida umumjamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida takomillashib, mukammallashgan shaklda bizgacha yetib keldi.

Ilk nomusiqaviy cholg'ularning "Morfoloqik" va "Ergoloqik" ta'rifi: Urma cholg'ularning zarbu-usullaridagi xilma-xil sadolari, inson ruhiyotiga ta'sir qiluvchi ilohiy qudratga ega ekanligi qadimdan ma'lum. Ehtimol, ularning inson hayotiga chuqur kirib borganligi ham shu sabablidir.

Odamzodning muntazam harakatlari muayyan usuliy tartibni tashkil etganligi natijasida urma cholg'ularning paydo bo'lishini ta'minlagan deyish mumkin. Urma cholg'ular sadolari yordamida inson ruhiy olamiga tegishli tahsir o'tkazib kelingan. Borliqning insonga ta'sirida insonning ichki ritmik-usuliy harakatlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Ritm madaniyati hayot boshlang'ich asoslaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonida alohida o'rin egallaydi. Ritm muayyan shaxsiy yoki jamoaviy harakatlar mukammallashuvining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Ritm – musiqada ma'nodorlik, o'tkirlik, aniqlik, ta'sirchanlik asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Etnopsixolog B.Teplovning ta'kidlashicha, ritm hissiyoti musiqada ichki a'zolar bilan yondosh aloqadorlikda bo'lsa ham, u hali musiqaviy usuliy chekinmadan tashkil topmasdan faqatgina uning paydo bo'lishiga muhim sharoit yaratadi, xolos. Ya'ni, ritm musiqada muayyan his tuyg'u, zavq, hayajon maromini boshqaruvchi hodisa hisoblanadi. Demak, ritm hissiyoti nafaqat harakat, balki tabiiy tuyg'ularning mavjudligi bilan ahamiyatlidir. O.Apraksina ritm hissiyotini biror bir musiqiy faoliyat [xoh u qo'shiq, xoh cholg'ulardagi ijro yoki musiqqa bastalash bo'lsin] uning amaliyotisiz bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi.¹ A.Nazarovning fikricha, "Ritm - ibtidoiy inson hayotining asosiy qat'iy turkumi bo'lib, jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, unga uyg'unlik bag'ishlovchi yagona vosita hisoblangan. Ritm – nafaqat ijtimoiy jihatdan eng yuqori oliy shakliy vazifa, balki undan ham kengroq ma'naviy vazifalarni bajarib, insonni avlodlar ruhi bilan bog'lovchi muhim omil hisoblanadi"².

¹ Apraksina O.A. Хрестоматия по методике музыкального воспитания. - М.: Просвещение, 1987.– 180 б.

² Назаров А.Ф. Мумтоз ийкоъ назарияси. Санъатшунослик фанлари доктори илмий даражасига даъвогар диссертацияси. - Тошкент. - 1996.

Madaniyatning tobora rivojlana borishi natijasida odamzodga "Chapak", «Qars», «Терги», ijrosi turli xil rasm-rusm, urf-odatlar ifodasi sifatida jalb etilib, bir necha musiqiy ritmlar negizini tashkil etgan, desa ham bo'ladi. Qars ijrolari yakka, guruhli tusda, hatto erkaklarning yog'och-tayoq qurollarida, qars - sado chiqarish uslublari turli xil bahodirona raqslarda ijro maqomini bajarish vazifasini ado etgan.

«So'nggi Ashel» davrida ibtidoiy odamlarning urma cholg'ulari tarkibida "kunda cho'p", "qovoq-cho'p", "bambuk", "paqqildoq" kabi cholg'ular o'rnida qo'llanilgan ashyolar ham mavjud bo'lgan. Bunday ashyolar yordamida erkaklar tomonidan turli ritmlar ijro etilib kelingan.

Nog'ora cholg'usining tarixi (morfologik genezis):Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida eng qadimgi va keng tarqalgan urma cholg'ulardan biri nog'oradir. Bu cholg'uning asta-sekin mazkur xalqlar, ularning qavm va qabilalari orasida paydo bo'lib, tarqalib ketishida ayollarning o'rni va xizmati katta bo'lgan. Muzlik bosqichi davrida evropaning «Mustye» (fransiya g'ori) davrida g'orlar ichida yashab, o'z uy yumushlarini shu yerning o'zida bajarishgan. Ayollar cholg'u yasash maqsadida emas, balki kiyim tayyorlash maqsadida xayvon terisiga ishlov berganlar, so'ngra uni xumsimon katta yog'och kundaga quritish uchun tashlab qo'yganlar. G'orlardagi quruqlik va issiqlik tahsirida yog'och kundalarga terining yelimsimon moddasi yopishib qolishi natijasida qurishi ham tezlashgan. Oqibatda, kovak kundaga yopishgan teri haqiqiy nog'orasimon sas chiqarib, diqqatni jalb etgan holda urma cholg'u mavqeini egallab qolgan³. Demak, jahon hamjamiyatining eng sevimli va sozlarining ilk piri hisoblangan "HOG'ORA"- cholg'usi ayollar tomomidan tassodifan paydo bo'lgan cholg'u hisoblanib, uning tarixiga 100- ming yil bo'lib o'tdi va morfologik genezisi tariximizda muhurlandi deyish mymkin. Xuddi shunday kiyimga mo'xtojlik davrida yuzaga kelgan deyish ham mumkin.

O'zbekistonning Surxondaryo viloyati Teshiktosh g'oridan topilgan toshdagi haykalcha tasviri nog'ora cholg'usining Mavorounnahr zaminida ham keng qo'llanilganligidan dalolat beradi.

Xullas; Nog'ora cholg'usining tarixiga 100.000 ming yil bo'lib o'tgan bo'lsa-da, hozirgi kungacha o'z tuzilishlarida farqiyati o'z muncha yo bir xillikni tashkil etadi. Doyra cholg'usining tarixiga esa 5000 ming yil vaqt o'tgan deyish mumkin. Nay cholg'usiga esa 11.000 ming yillik tarixiga ⁴aniq dalillar mavjud.

Litavralar; (yunon tilidan poli- ko'p va taurea-baraban)-ma'lum balnadlikka ega bo'lgan urma zarbli cholg'u. Litavra mis qozon shaklida bo'lib, ustiga teri qoplangan. Teri vintlar yordamida tortilib yo bo'shatilib, ma'lum tovushga sozlanadi. Litavra tastlab Osiyo xalqlari orasida paydo bo'lib, Eevropada 15-asrda kelgan. Litavraning katta, o'rta va kichik turlari bor. Ular kontr oktavadan tortib birinchi oktavaga qadar richaklarda (kalkilar) tortilib sozlanadi. Zamonaviy Litavralar esa elektron havo bosimi yordamida ham sozlanadi.

Notalar eshutilishiga nisbat oktava yuqori yozailadi.

Simfonik orkestrda bir necha Litavralar (kamida ikkita) qo'llaniladi. Litavraning sozi musiqa asarining boshlang'ich qismida va kompozitorning ko'rsatishi bo'yicha asar o'rtalarida kelishi mumkin. Bunday holda Litavra uchun pauza berilib, sozi o'zgartiriladi.

³ Саидий С.Б. Ногора ва дойра чолгулари хуусида // Ж. Махорат кўзгуси.- Бухоро.- 2001.- №1.- 60-63 б.

⁴ S.B.Saidiy, O'sha asar

So'ngi davrda mexanizasiyalashtirilgan Litavralar qo'llanila boshlandi. Sozlanish jarayoni avtomatik holatda qo'l va oyoq pedal yordamida bosib yo aks holatigacha tushirib sozlanadi. Sozlanishida xromatik notalar aks ettirilgan misli termometersimon o'rnatgich yuzidan soatsimon yo (azimut) quruviga o'xshash strelkalarning yurgizishida sodir bo'ladi. Misol; DO-DO,diyezd, RE-Re, diyezd va hokazo. Har bir nota yo diyezd, bemol ustiga strelka borgunga qadar sozlanadi. Ushbu juda tez sozlanish imkoniyatiga ega bo'lganiga sabab ayrim kompozitorlarning asarlarida 4-ham sanoqqa teng pauzadan so'ng boshqa tonallikda tranpozitsiyalangan asar Litavra solasi bilan boshlab berishi jarayonlari ham kam emas. Shu bois Litavralarning takomillashtirilgan nusxalari kashf etildi.

Asar oralig'ida Litavra boshqa pardaga sozlanishi lozim bo'lsa, partiturada uning partiyasi yoziladigan nota chizig'iga qisqacha P – (pauza) deb yoziladi.

Litavra ikki tayoq yordamida chalinadi. Ushbuning uchi yumshoq qilinib ishlangan mato o'ramasidan iborat maxsus tayoqchalar bilan urib chalinadi. Tovushi katta nog'ora tovushiga o'xshash. Simfonik orkestrda Litavra yakka ijro qilishda qo'llanilib, pastki bas akkordlarini to'la eshitalishiga ko'maklashadi.

Simfonik orkestr partiturasida Litavralar notasi Aerofonlar guruhidan so'ng, mis puflama cholg'u asboblari tagida yoziladi.

Xullas; Nog'ora (zamonaviy mexanizasiyalantirilgani-Litavra-ning avlodi) cholg'usining tarixiga 100.000 ming yil bo'lib o'tgan bo'lsa-da, an'anaviy tuzilishi o'z ergologiyasiga nisbat hozirgi kunga qadar farqiyati o'z muncha yo bir xillikni tashkil etadi.

Litavra sozlanishi: kichik oktava SI-bemol, birinchi oktava MI-bemol va shu tarzda RE-FA bemolga, LYa-DO-ga, SOL-SI-ga, FA-diyezd-DO-diyezd-ga va asarning tonalligiga qarab sozlanadi.

ZAMONAVIY LITAVRALAR



Doyra chol'g'usining tarixi (morfologik genezis): Markaziy Osiyo, Sharq va Yevropaning janubiy aholi o'rtasida ona kabi "Ramz" sifatiga tanilgan va serqirrali muolajalarga amr ettirilgan (devlar ajini, ruhiy bemorlar shifosi va sevgi tumori) cholg'usi Doyradir.

Uchinchi cholg'u 5- ming yillik tarixiga kelib ilohiyot bilan bog'lanuvchan, differensial qo'zg'alishlarga sababchi va jahon mo'jizalaridan biri sanalgan "DOYRA" – cholg'usidir. Ushbu cholg'u "Nissioniy" va "Parfioniy"-lar davrida nafaqat musiqiy olam, hatto u yo bu ko'rinishdagi falsafaviy g'oyalar targ'ibotchiligi va tibbiyotning ruhiyyot- (psixologik) olamida ko'chirmachi ayollar tomonidan keng foydalanib kelingan. Ushbu cholg'uning nomoddiy qo'llanishi 8- mingyilliklarga borib taqalsada, ammo, faktologik tarix mavjud emas. Faqatgina 5- ming yillik tarixida cholg'uning

sirlari filologik jixatdan ma'lum bo'lib, dalil sifatida ijro sirlari haligacha ochilmasdan qolgan.⁵ Ya'ni, ruhiyyot bilan bog'lansa-da, undagi ijrochiga ayyon bo'lgan sirli usul "shohzarbligida" ruhiy xastaliklar davolanib kelinganligi haqida faktologik ma'lumotlar mavzud bo'lib, ya'ni, oliy asab faoliyati funksiyalariga chiqish va bo'y sundirish, ong osti harakatlarini anglash va differensial qo'zg'alishlarni bajarish kabi muolajalar bajarilgan.

Doyra o'z tarixida birinchidan folbin va parxonlar tomonidan fol ochishda, afsungar va jodugarlarda esa bandu-bast (bog'lash)-da, ko'chirmachi ayollar tomonidan ruhiy tabobat usullarida va musiqa ijrochiligida yakka va musiqaga jo'r bo'lguvchi, yani kasbiy ijrochilikda qo'llanib kelingan.

Doyra musiqa cholg'usi musiqa ijrochiligida asosan mezon hisoblanib, yakka ijro, ikki, uch, to'rt, besh va ko'proq cholg'ular jo'rliigidagi jamoa ijrolari jarayonida, hamda xonanda va sozandalar jo'rliigidagi ijrolar, bir me'yorda muayyan o'lchovlardagi doyra zarbalari asosida ijro etib turiladi. Shu asnoda ijro jarayonini sekin, o'rtacha, tez va jozibadorligi sezilib turiladi.

Doyra musiqa cholg'usi butun Sharq xalqlarida turli xil nomlar bilan atalib ijrochilikda qo'llaniladi. Masalan: doyra, daf, chirmanda, childirma. Turkiyada esa "dumbalak" nomi bilan ataladi.

Hozirgi kunda O'rta Osiyoda turli xil ko'rinishdagi doyralar uchraydi. O'zbekistonda esa doyra musiqa cholg'usi xalq ashulalari, yallalar, terma, lapar, maqom asarlarini cholg'u va ashula yo'li ijrolarida keng miqyosda qo'llaniladi.

Dojrada ijro etiladigan ijro zarblari esa turli davrlarda har xil nomlanib, aruz vaznlari asosida tartibga keltirilib "T" va "N" harflaridan foydalanilgan. Masalan: Tana, tan-nan, tana-nana va hokazo.⁶

Ma'lumki Buxoro shahrida musiqa ilmini amaliy va nazariy masalalariga katta e'tibor berib kelingan. 1920 yillargacha Buxoroda mavjud musiqa ijrochiligi haqida yozib qoldirilgan ko'pgina musiqiy risolalarga tayangan holda Abdurauf Fitrat doyra zarblari haqida shunday ma'lumot beradi. U doyra zarblarini "usul" deb ataydi.

Bunda "nag'ma" va "niqra"⁷ to'g'risida so'z yuritiladi. "Musiqiy olimlarimiz musiqada usul belgilash uchun shunday harakat qiladilar: "kuy" da bir-biriga boylanib kelgan "niqra" larning "tan" shaklida bo'lganini "sabab-i hafif", "tana" shaklida bo'lganini "sabab-i saqil", "tanani" shaklida bo'lganini "fosila"⁸ deb ataydilar. Mana shul (tan, tana, tanani) shakllarida boylangan niqralarni belgili bir tartibda yig'ib, musiqiy usullarni maydonga chiqaradilar. «Tanani-tanani-tanani» (fa'ulun, fa'ulun) vazniga «Hazaj» deydi. «Tanani-tanani-tanani» (foi'lun, foi'lun) vazniga «Ramal» deydi. Mana shunday qilib «usul» doyralarini tuzadirlar. Usul doyralari ba'zilariga ko'ra o'n besh, ba'zilariga ko'ra o'n yetti, ba'zilariga ko'ra yigirma to'rt, yigirma yettidir. Usul doyralaridan mashhur o'n ikkitasining otlari mana shulardir: Hazaj, ramal, vofir, duyak, foxtazarb, Turkiy, muxammas, saqiyl, chanbar, zarb-i qadim,

⁵ .B.Saidiy. "Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida)" cholg'ushunoslik asoslari darsligi - Toshkent "musiqqa" nashriyoti. 2008 yil.

⁶ (Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963. 68 s.)

⁷ S.B.Saidiy. Buxoro, ekspeditsiya, ARK, 1991 yil.

⁸ Фитрат А. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи. - М.: Гослитиздат, 1927.- Қайта нашри.- Т.: Фан, 1993.- 56 б.

zarbu-l-fath.”⁹ (Fitrat, O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993. 6,7,12,13 sahifalar.

Qayta nashri). Fitrat bu kitobda o‘z fikrini davom ettirib, hozirgi kunda o‘zbek musiqa ijrochiligida doyra zarblaridan «Tanan-tananan» o‘rniga esa «bak-baka-baka-bum» nomlanishdagi ijrolari qo‘llanilayotganligini ta’kidlaydi. Shunday qilib hozirgi kunda o‘zbek musiqasida «bum-bak» (Xivada «gub-taq») nomli doyra zarblari bo‘lib, ushbu kitobchani 12 sahifasidan to 24 sahifalarigacha Buxoroda mavjud moqom asarlarini ijrolarida qo‘llanilgan juda ko‘p sonli doyra zarblari¹⁰ haqida ma’lumot bergan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston musiqa ijrochiligida doyra musiqa cholg‘usini xotin-qizlar xalq ashulalari, lapar, yalla ijrolarida keng foydalanadilar. Ular- otin, yallachi, laparchi, xalifa, sozanda deb ataladi. Undan tashqari Buxoro, Farg‘ona, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo¹¹ va Surxondaryo o‘zining doyra ijrochilik maktablariga ega. Bu borada K.Olimboyeva va M.Ahmedovlar o‘z asarlarida ma’lumotlar berilgan.

Muallif tadqiqotlarida doyra cholg‘usining yangi tizimdagi ilmiy asoslangan kaliti:

*Ushbu doyra kaliti harbiy orkestr bayrog‘i (ramzi) sifatida “bunchuk”-deb ataladi. Ushbu Liraga asoslanib yasalgan bo‘lib, ammo u urma zarbli cholg‘ular guruhiga kiradi va tayoqchalar orqali po‘lat-temirli xromatik klavishlariga urib chalinadi.

D O Y R A CHOLG‘USINING YANGI TIZIMDAGI NOTA YOZUVI

O‘n qo‘l - **1.katta bum, 2. kichik bum, 3.katta bak, 4.kichik bak, 5.noxun.**

Markaziy bum - **6+7, qasqon kaft-zang- 8**

Chap qo‘l - **9.katta bum, 10. kichik bum, 11.katta bak, 12.kichik bak, 13.nohun.**

Zang-zarb-**14**, qasqon musht zarb- **15**, o‘tirgan holatda har ikkala qo‘l harakatida qo‘llarni mushtlab ijro etiladi.

*A.I.Petrosyans 1952 yilda doyra notatsiyasini 4-chiziqqa tegishlilikini asoslagan edi. Ammo u doyrani o‘tirgan holatdagi markaziy bum zarbi boshqa davlatlar ijrochiligida asosiy o‘rin tutishini anglamay qolganligi munosabati bilan, yuqoridagi Si-notasidan o‘rin olishi 5- chizikli jahon standartlaridan o‘rin olganligini bildiradi. Shuningdek, o‘zimizda 3-4-5 doyraga ijro etishda ham “Markaziy bum” katta o‘rin tutadi.



⁹ Саид Саидий. Зарб-Ул-Кадим. //Ж.СОҒЛОМ АВЛОД УЧУН. Тошкент, 2007.

¹⁰ K.Olimboyeva va M.Ahmedov «O‘zbekiston xalq sozandalari» 1959. 59-63 s..

¹¹ Fayzullo Karomatovning («Узбекская инструментальная музыка». Tashkent.1972.8-43s.),



Doyra va tablak musiqa cholg'ulari.

Hozirgi kunda 40 dan ortiq doyra zarblari, ya'ni usullari, o'zbek musiqa ijrochiligida qo'llaniladi. Ayniqsa eng murakkab ijroga xos doyra zarblari Yunus Rajabiy notaga olgan «Shashmaqom» kitoblarida berilgan.

O'zbekistonda o'ziga xos doyra ijrochiligi maktabini yaratgan ustozlardan - Usto Olim Komilov va shogirdlaridan- G'ofur Azimov, To'ychi Inog'omov, Qahramon Dadaev, Doda Xo'ja aka Sottixo'jayev, aka-uka Elmurod va Dilmurod Islomovlar, San'atilla Azimov, Xalil Muhammadiyev, Buxorolik mohir doyradastrar ustoz Safo va Solilar, ustoz Haydar va Olimlar, aka uka mohir doyrachilar ustoz Omon va Muin Nasriddinovlar, doyra maqom bilimdonlari Tolib va Obid Temirovlar hamda hozirgi kunda o'zbek mumtoz musiqa ijrochiligiga ayniqsa maqom asarlarini cholg'u va ashula yo'li ijrosida o'ziga xos doyra zarblarini mukammal egallagan doyra cholg'uvchi sozanda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasidagi "An'anaviy ijrochilik" bo'limining doyra sinfi bo'yiga ustoz Rahmatilla Samadov o'ziga xos doyra ijrochilik maktabini yaratgan yetuk ustozlardan hisoblanadi. Hozirgi kunda doyra ijrochiligi bir to'g'ri chizilgan chiziqda yoziladi. Ya'ni «bum» chiziqni ostida, «bak» chiziqni ustida yoziladi. Undan tashqari doyra ijrochiligida bum, bak, katta bak, kichik bak, katta bum, kichik bum, noxun, rez kabi ijrolar mavjud.

Doyra ijrochisi albatta maqom asarlarida mavjud cholg'u ijrosiga xos tasnif, tarje', gardun, muxammas, saqil hamda ashula yo'li ijrosiga xos saraxbor, talqin, nasr va taronalari, ufor, mo'g'ulcha, savt va ulardagi davomiy asarlarida mavjud doyra zarblarini ijrolarini hamda O'zbekistonda ashula yo'li ijrosiga xos ashulalardan: "Girya", "Bayot IY", Yunus Rajabiy bastalagan "Kuygay", "Ne Navo soz aylagay" ¹²va boshqa ashulalar ijrosida qo'llaniladigan doyra zarblarini mukammal o'zlashtirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Barcha musiqa dargohlarida doyra sinflari mavjud bo'lib, doyra ijrochiligi keng miqyosda kasbiylashgan ta'limda o'rganilmoqda.

Tayanch iboralar: Paqqildoq, chaqqildoq, shaqqildoq, no'g'orasimon, doyra, debu, daff,tablak(tavlak),parxon,folbin,ko'cgirmachi,koxin, afsungar

Резюме: В статье рассказывается об исторической «Морфологии» первичных инструментов мира так как «Нагара» или «Литавры». А также их распространения на территории мировоззрения народов и государств. В том числе новое научное изобретения нотописания на 5-линной и возновление ключа в исполнение дойры.

The resume: Sphere of using: it is used in traditional instrumental histori of practice in of doyra fayv notes teoretikal in of practice.